

**SHARQ MADANIY MEROSINI O'RGANISH BO'LAJAK PEDAGOGLARNING
ESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq madaniy merosining bo'lajak pedagoglarning estetik dunyoqarashini rivojlantirishdagi o'rni va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Sharq mutafakkirlari va allomalarining ta'lim-tarbiya, san'at, musiqa hamda estetik tarbiyaga oid qarashlari asosida bo'lajak pedagoglarda estetik tafakkur, badiiy did, milliy qadriyatlarga hurmat va kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy hamda metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida Sharq madaniy merosini o'quv jarayoniga integratsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish orqali talabalarning estetik madaniyati, ijodiy fikrlashi hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Sharq madaniy merosi, estetik dunyoqarash, bo'lajak pedagog, estetik tarbiya, kasbiy kompetentlik, Sharq allomalari, milliy qadriyatlar, musiqa madaniyati, badiiy did, estetik tafakkur, pedagogik metodika, ma'naviy-axloqiy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv, madaniy meros.

Аннотация: В статье рассматривается роль культурного наследия Востока как важного фактора формирования эстетического мировоззрения будущих педагогов. На основе педагогических, философских, музыкально-эстетических и нравственных взглядов восточных мыслителей раскрываются теоретические и методические основы развития эстетического мышления, художественного вкуса, профессиональной компетентности и уважения к национальным ценностям у будущих педагогов. Особое внимание уделяется интеграции культурного наследия Востока в образовательный процесс высшей школы, использованию инновационных педагогических технологий и интерактивных методов, способствующих развитию эстетической культуры, творческого мышления и духовно-нравственных качеств студентов.

Ключевые слова: культурное наследие Востока, эстетическое мировоззрение, будущий педагог, эстетическое воспитание, профессиональная компетентность, восточные мыслители, национальные ценности, музыкальная культура, художественный вкус, эстетическое мышление, педагогическая методика, духовно-нравственное воспитание, компетентностный подход.

Abstract: This article examines the role of the cultural heritage of the East as a significant factor in developing the aesthetic worldview of future teachers. Based on the pedagogical, philosophical, musical, and aesthetic ideas of Eastern scholars and thinkers, the study reveals the theoretical and methodological foundations for fostering aesthetic thinking, artistic taste, professional competence, and respect for national values among prospective teachers. Particular attention is paid to integrating Eastern cultural heritage into higher education, applying innovative pedagogical technologies and interactive teaching methods to enhance students' aesthetic culture, creative thinking, and moral values.

Keywords: Eastern cultural heritage, aesthetic worldview, future teachers, aesthetic education, professional competence, Eastern scholars, national values, musical culture, artistic taste, aesthetic thinking, pedagogical methodology, moral education, competency-based approach, cultural heritage.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida nafaqat raqobatbardosh, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga, mustahkam estetik dunyoqarashga hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglay oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan bo'lajak pedagoglarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, yosh avlodni ma'naviy barkamol insonlar etib

tarbiyalash hamda milliy madaniy merosni asrab-avaylashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Estetik dunyoqarash shaxsning borliq, tabiat, san'at va jamiyatdagi go'zallikni anglash, baholash hamda hayotiy faoliyatida estetik qadriyatlarni namoyon eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagog uchun estetik dunyoqarash kasbiy kompetentligining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning estetik dunyoqarashini rivojlantirishning samarali metod va vositalarini izlash zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sharq xalqlari tomonidan yaratilgan boy madaniy meros, xususan, musiqa, adabiyot, me'morchilik, tasviriy san'at, falsafa va axloqiy-ta'limiy qarashlar inson kamolotiga xizmat qiluvchi bebaho ma'naviy boylikdir. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlarning ilmiy va badiiy merosida insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti, estetik tarbiyasi, san'atning tarbiyaviy ahamiyati hamda go'zallikni anglash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu ilmiy-ma'naviy meros bugungi kunda ham pedagogik ta'lim mazmunini boyitish, bo'lajak pedagoglarda estetik tafakkur, badiiy did va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, milliy qadriyatlar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq oliy pedagogik ta'lim amaliyotida Sharq madaniy merosining estetik tarbiyaga oid imkoniyatlaridan to'liq va tizimli foydalanish, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hamda bo'lajak pedagoglarning estetik dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi Sharq madaniy merosining bo'lajak pedagoglarning estetik dunyoqarashini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda uni oliy ta'lim jarayoniga integratsiya etishning metodik asoslarini yoritishdan iborat. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish orqali talabalarda estetik tafakkur, badiiy did, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga hurmat va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali yo'llari asoslab beriladi.

Buxorolik bastakorlar yaratgan bebaho asarlarni o'rganish talabadan juda katta iqtidor va qobiliyat talab qiladi. Buxorolik ustozlarning o'ziga xos maktabi ham bebaho ma'naviy xazinadir. Bo'lajak pedagoglar Buxoro musiqa namoyandalari ijodiga aksiologik yondashish orqali umumiy ta'lim maktablarida o'tiladigan darslarining sifati va samaradorligiga ham erishishlari mumkin. Ayni paytda bo'lajak o'qituvchilar, bakalavrlarni Buxoro musiqa namoyandalari ijodi misolida tarbiyalab borish ushbu qadriyatlar va boy musiqiy bilim manbalaridan chuqur va xalqimiz yuksak badiiy didga ega bo'lganligi uchun ham har bir narsani oltin bahosida qabul qilavermaydi. Shu o'rinda qadriyatlarning sifat jihati haqida ham alohida to'xtalib o'tish o'rinlidir. Buxoro san'atining gulto'ji bo'lgan «Shashmaqom»ning sifati haqida so'z yuritishning o'zi ham xalkning didi kanchalik yuqori ekanligini ko'rsatadigan mezon hisoblanadi. aksiologik munosabatlar bu birgina hududga taalluqli bo'lmay, u barcha xududlardan kelgan talablar uchun hamma narsaga ega.

Tarixiy manbalarda bitilishicha, Abulabbos mutrib maktab talabalari uchun musiqa nazariyasi fanidan qator darsliklar yaratgan. Buxoroda musiqa maktabini ochib, yunon olimlari Ptolemey va Yevklidlarning «Ritmika», «Musiqa qonunlari» singari yirik asarlarini tarjima qilib, musiqa maktabi ta'limi amaliyotiga kiritgan. Musiqa san'ati va musiqashunoslik fani uchun asarlar yaratib, shogirdlar tayyorlagan hamda mazkur fanlar rivojiga munosib hissa qo'shgan.

Ayniqsa, Buxoro hududining o'ziga xos musiqiy folklori mavjud bo'lib, u asosan xalq orasida keng tarqalgan «Buxorcha» ashula va raqs turkumi, «Mavrigi» taronalari bilan mashhurdir. Bu san'at turlarining har biri betakror hamda qator asarlarni o'zida mujassamlashtirish

xususiyatiga ham ega bo'lgan turkumlardan tashkil topgan. Ular Buxoro xalkining urf-odatlarini, to'y-tantanalari va boshqa marosimlarida kuylanib kelinadi. Shu jihati bilan ham u betakror musiqa merosidir.

Qadriyatlarning muhim pedagogik jihatlaridan yana biri o'tmish musiqa merosiga munosabat bildirishdir. Xalq an'alarining xalqchilligi, uning el-yurtning kundalik hayotiga chukur singib ketganligi va bu kadriyatlarsiz tassavvur kilib bo'lmazligi hamda unga katta hurmat hamda ehtirom bilan munosabatda bo'lish yosh avlod uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Buxoro xududi san'ati va san'atkorlariga bildiradigan munosabat haqida keng ma'lumotga ega bo'lgan har bir talaba, musiqa mutaxassisi o'zi yashab, unib-o'sgan hududini ko'z oldiga keltiradi va u o'z xududidan chikkan mashhur insonlarning hayoti va faoliyati bilan kizika boshlaydi. Ularning shu hudud xalqiga qilgan xizmatlari, topgan obro'-e'tibori haqida fikr-mulohaza yuritadilar. Kuch-g'ayratga to'lgan, talabalik bilimi va iktidoriga ega bo'lgan har bir mutaxassis o'z hududida yashayotgan xalqiga qanday foydasi tegishi mumkinligi to'g'risida o'ylaydi. Demak, Buxoro san'ati va madaniyati namoyandalariga nisbatan bo'layotgan Musiqa ta'limi jarayonida aksiologik yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra voqelikni atroflicha o'rganish hamda chukur idrok etishda muhim o'rin tutadi. Xususan, musiqiy merosimizga, musiqiy qadriyatlarimizga aksiologik yondashuvdan kutiladigan maqsad o'tmishda musiqa sohasida faoliyat ko'rsatgan mutaxassislarimizning boy tajribasi, ijod mahsuli bo'lgan musiqiy asarlarni, musiqiy risolalar, cholg'u sozlari ijodkorligi va musiqaning psixologik va pedagogik ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati, didaktik tuzilmalari haqidagi fikrlariga hurmat ko'rsatish, ularni asrab-avaylash, kimmagini bilish, sinchiklab o'rganishdan iborat.

Musiqiy merosga ijodkorlik bilan yondashish, uning boy an'alarini davom ettirish, yangilash va uning boy an'alarini davom ettirish va kelajak avlodga etkazish muhim vazifadir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Buxoro boy musiqa madaniyati tarixiga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Buxoroda tug'ilib, umrining salmoqli qismini shu hududda o'tkazgan va ijodiy faoliyat olib borgan mashhur musiqa namoyandalari ko'pchilikni tashkil etadi. Ular ijodini alohida o'rganish va faoliyatiga aksiologik yondashish yosh avlod tarbiyasida ham salmikli o'rin tutadi. Abu Ali ibn Sinoning musiqa haqidagi risolalari, Buxoroda faoliyat ko'rsatgan mashhur xofiz, shoir Abu Abdullo Ro'dakiy, «Shashmaqom»ning buyuk namoyandalari, mashhur hofiz va sozandalar Ota Jalol Nosirov va boshqalar ijodini sinchiklab o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sobik sho'ro tuzumida yashab ijod etgan musiqa san'ati va madaniyatining betakror namoyandalari Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodikov, Mutal Burxonov, Fayzulla Karomatov, Botir Umidjonov va ularning izdoshlari Mustafo Bafoev, Rustam Abdullaev, mohir cholg'uchilar tanburchi Ma'rufjon Toshpo'latov, Moshe Boboxonov, Sulaymon Toxanov va boshqalar ijodiga aksiologik yondashuv Buxoro xududi san'at darg'alarining o'zbek musiqasi rivojiga qo'shgan hissasini yaqqol ko'rish mumkin.

Sharq allomalari musiqa ilmi rivojlanishiga IX-XVI-asrlarda, ayniqsa musiqa nazariyasi va musiqada shakllar masalasi muammolarini yechish borasida ulkan hissa qo'shdilar. Musiqashunoslik, uning nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanib ulkan tarixiy musiqiy-pedagogik meros qoldirdilar. Forobiy "ta'lim" va "tarbiya" tushunchalariga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. "Ta'lim" degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, "tarbiya" - nazariy faoliyatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarini o'rgatishdir. "Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish tajriba bilan ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish, harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir".

Qadimgi Yunon faylasuflaridan Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel)larning dunyoqarashlarini chuqur o'rganib, tadqiq etib, ularning ta'limotlarini qaytadan ishlab chiqqan. Bu esa unga Aristoteldan keyin "Ustodi soniy" (ikkinchi ustod) nomini beradi. Forobiy o'sha davrning eng mohir sozandasi, bastakori, O'rta

Osiyoda va Yaqin Sharqda musiqa madaniyatining yirik arbobi sifatida tanilgan, ijrochilik san'atida ham benihoya katta shuhrat qozongan. Xullas, Forobiy musiqashunoslik ilmi va musiqiy pedagogic ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish g'oyasi ustuvor bo'lib, tarbiya

berishdan maqsad-insonda go'zal fazilatlarni rivojlantirish va san'at ahllariga aylantirishdan iborat bo'lishi lozimligi haqidagi ta'limoti hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan ahamiyatlidir.

Buyuk donishmand Abu Rayhon Beruniy ilm san'at tufayli yovuzlikdan xolos bo'lish mumkinligiga ishonch bildirib turli ilmlar katori musiqaning paydo bo'lishi, jamiyatda uning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ta'riflagan: "Nozik tabiatlik kishilar musiqa tinglab rohatlanadilar. Tartibga solingan ohanglar kishiga kuchliroq ta'sir qiladi. Kishi tartibni yoqtiradi. Tartibli she'rlar diqqatni jalb etadi. She'r qatorlari ohanglar uyg'unligi bilan qorishib ketganida kishiga yanada maqbulroq bo'ladi. Shundan musiqa ilmi kelib chiqqan"

Tadqiqotchilar, jumladan A. Irisov izlanishlarida ham ibn Sino musiqaga oid ham asarlar yaratganligi, lekin ularning faqat bir qismigina bizgacha yetib kelganligi xususida ma'lumot beriladi. Jumladan, "Musiqiy ilmi haqida" risolasida tovushning sezgi a'zolariga ta'siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yo nafratlanish hissining paydo bo'lishi kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tiladi.

Unda musiqaning kishi hayotida qanchalik zarurligi haqida fikrlar bayon etiladi. Olimning fikricha, inson tabiatan yoqimli narsalar orqali yengil tortsa, uning aksida oromi yo'qolib, nafrati paydo bo'ladi. Ibn Sino musiqa tovushlarining kishi ruhiga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini bayon qilgan.¹

Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari u yashagan davr musiqa ilmi haqida, uning ahamiyati, tarbiyaviy hamda tibbiy xususiyatlari to'g'risida juda muhim ma'lumot, tushunchalar berishi bilan ham qimmatlidir. Ayniqsa, "Kitob ush - Shifo" qomusiy to'plamiga uchta musiqiy risolasi kiritilgan bo'lib, "Musiqa insonda hayotbaxsh, oliyanob axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi, uning aqliy va axloqiy qiyofasini shakllantiradi", degan g'oyani ilgari surgan. Ibn Sino musiqani insonning go'dakligidan to umrining oxirigacha zarur va foydali bo'lgan badiiy-estetik va tarbiyaviy qadriyat, deb hisoblaydi. Uning o'zi ham musiqa bilan shug'ullangan, hatto surnayning yaratilishini unga nisbat beradilar"².

Ibn Sino bolalardagi his-tuyg'u tarbiyasida musiqaning ahamiyatini alohida ta'kidlab, bolada juda yoshligidan boshlab musiqiy hissiyotni tarbiyalash muhim va bu uning ruhiy holatini mustahkamlaydi, degan g'oyani ilgari surgan. Ulug' alloma bu haqidagi qimmatli fikrlarini quyidagicha izohlagan:

"Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri - bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisining qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyasiga va ruh bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi". Shunday qilib, musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini buyuk donishmand juda keng va chuqur ma'noda anglagan hamda targ'ib etgan. Ibn Sinoning inson kamolotida musiqiy tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ilmiy-amaliy jihatdan asoslagan. Uning musiqiy-ma'rifiy qarashlarida insonning ham aqliy ham axloqiy, estetik hamda musiqiy tomonidan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezonlaridan biri sifatida talqin etiladi. Abu Ali ibn Sinoning qoldirgan ilmiy merosi nafaqat tibbiyotda, balki musiqashunoslik va musiqa pedagogikasida ham keng tatbiq etib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Sharq madaniy merosi bo'lajak pedagoglarning estetik dunyoqarashini rivojlantirishda muhim ma'naviy, madaniy va pedagogik manba hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy, musiqiy va badiiy meros insonning ma'naviy kamoloti, estetik didi, axloqiy fazilatlari hamda ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi boy tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Mazkur merosni pedagogik ta'lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va estetik kompetentligini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

¹ Irisov A. Abu Ali ibn Sino. Hayoti va ijodiy merosi. - Toshkent. "FAN" 1980.

-B. 137-138.

²Choriev T.R., Xudoev G'.M. Sadridin Ayniy ijodida musiqa san'ati va musiqashunoslik // San'at yo'nalishlarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. - Buxoro. 2013. - B. 15-16.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarni nafaqat zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglagan, yuksak estetik madaniyatga ega mutaxassis sifatida tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan Sharq madaniy merosini o'rganish ularda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash, san'at va madaniyatga hurmat ruhini shakllantirish bilan bir qatorda, estetik tafakkur, badiiy did, ijodiy yondashuv va kasbiy refleksiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi Sharq allomalarining musiqa, san'at va estetik tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik fanlar mazmuniga integratsiya qilish bo'lajak pedagoglarning musiqiy-estetik bilimlarini boyitadi, ularning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtiradi hamda kelajakdagi pedagogik faoliyatida estetik tarbiyani samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonining milliy qadriyatlar va zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv uyg'unligida tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sharq madaniy merosiga tayangan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak pedagoglarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish, musiqiy-estetik madaniyatini yuksaltirish, ijodiy fikrlashini faollashtirish hamda kasbiy faoliyatda estetik qadriyatlarni samarali qo'llash kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Shu bois pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida Sharq madaniy merosini o'rganishga yo'naltirilgan maxsus o'quv modullari, integrativ fanlar, innovatsion metodlar va amaliy mashg'ulotlarni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusida mazkur yo'nalishda Sharq allomalari merosini raqamli ta'lim resurslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini eksperimental tadqiqotlar orqali asoslash dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 2005
2. Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog'chasida musiqa T.: O'qituvchi. 2000.
3. F.G. Nurullayev "Bolalarning musiqiy ta'limi" T.: O'qituvchi 2007y
4. Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog'chasida musiqaviy o'yinlar va bayram ertaliklari. T.: O'qituvchi. 2011.
5. G.M. SHaripova, D.F. Asamova, Z.L. Xadjayeva "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" Toshkent 2014 yil
6. Maktabgacha ta'lim muasasalarida musiqa o'qitish metodikasi. Cho'lpon nashriyoti. Toshkent 2007y
7. Erkinovna S. D. BUXORO ADABIY MUHITIDA MUSIQA ILMINING O'QITILISHI //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – T. 2. – №. 2. – C. 64-69. San'atjon, [30.05.2025 10:55]
8. Choriev T.R., Xudoev G'.M. Sadridin Ayniy ijodida musiqa san'ati va musiqashunoslik San'at yo'nalishlarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy arbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami.- Buxoro. 2013
9. Fitrat A. . O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T., "Fan", 1993. – B. 52-56
10. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi.- T., "O'qituvchi", 1996. – B. 100.
11. Hasanov A. Musiqa va tarbiya. – T., "O'qituvchi", 1999. – B.46-47.